

## ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLAR

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

**“Iqtisodiyot nazaryasi kafedra” o‘qituvchisi**

**Qo‘ldashev Sherzod Alimardonovich**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi**

**Sharafiddinova Ozoda**

**Annotatsiya.** Maqolada ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishning iqtisodiy ahamiyati hamda uni boshqarish yo‘llari yoritilgan bo‘lib, mazkur masala zamonaviy moliyaviy tahlil mutaxassislari orasida eng ko‘p muhokama qilinayotgan yo‘nalishlardan biri sanaladi. Bu esa o‘z navbatida korxonaning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** xarajatlarni boshqarish, xarajatlar tahlili, xarajatlarni kamaytirish yo‘llari, xarajatlarning nazorat qilish jarayonlari , xarajatlarni kamaytirish

**Kirish.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tadbirkor yoki xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy maqsadi yuqori daromad olish va uni oshirib borishdan iborat. Korxonaning olishi mumkin bo‘lgan foyda miqdori esa ishlab chiqarayotgan mahsulot yoki ko‘rsatayotgan xizmatning hajmi, sifati, tannarxi hamda narxlar darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Korxonaning bozorga mahsulot chiqarib, undan foyda olish imkoniyatini belgilovchi asosiy omillardan biri xarajatlar hajmidir. Har qanday tovarni ishlab chiqarish ishlab chiqarish omillaridan foydalanishni talab qiladi va ushbu resurslar ma’lum qiymatga ega.

Korxona oladigan foydaning miqdori bir tomondan bozorga taklif qilinayotgan mahsulot miqdoriga, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy xarajatlar darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda tovarning bozor narxiga bog‘liq. Shu bois ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiyotning eng muhim kategoriyalaridan biri bo‘lib, ularni chuqur

o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki xarajatlar tuzilmasini tahlil qilish orqali har bir harajat turining ulushi aniqlanadi va ularni kamaytirish imkoniyatlari belgilab olinadi.

**Asosiy qism.** Umuman olganda, resurslardan oqilona foydalanish mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarning kamayishi hamda resurslardan foydalanish darajasining yaxshilanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, "resurslarni tejash" tushunchasi ularning samarali iste'moli natijasida yuzaga keladigan ijobiy natija va foydani ham anglatadi. Resurslar tejamkorligini ikki yo'nalishda — mutlaq va nisbiy tejamkorlik nuqtai nazaridan baholash mumkin. Mutlaq tejamkorlik mahsulotni ishlab chiqarish yoki iste'mol jarayonida unga sarflanadigan jonli va buyumlashgan mehnat miqdorining kamayishi bilan ifodalanadi. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymati yoki nafililik darajasi o'zgarmaydi.

Nisbiy tejamkorlik esa jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari nisbatan o'zgarmagan sharoitda ishlab chiqarishning foydali natijalari — ya'ni qiymat hajmining ortishi bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Shu sababli resurslar tejamkorligini ta'minlash iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Tejamkorlik darajasi odatda nisbiy ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Agar jamiyat bitta individdan iborat bo'lganida, uning harakatlarini tejamkorlik mezoniga ko'ra baholashning iloji bo'lmas edi. Demak, tejamkorlik jamiyatning ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichida mavjud resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi hamda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlik esa "xarajatlar – ishlab chiqarish" o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Boshqacha aytganda, u ishlab chiqarish jarayonida sarflangan cheklangan resurslar yig'indisi va olingan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Sarflangan xarajatlar miqdoriga nisbatan mahsulotning ortishi esa iqtisodiy samaradorlik oshganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, resurslardan oqilona foydalanish mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarning kamayishi hamda resurslardan foydalanish darajasining yaxshilanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, "resurslarni tejash" tushunchasi ularning

samarali iste'moli natijasida yuzaga keladigan ijobiy natija va foydani ham anglatadi. Resurslar tejamkorligini ikki yo'nalishda — mutlaq va nisbiy tejamkorlik nuqtai nazaridan baholash mumkin. Mutlaq tejamkorlik mahsulotni ishlab chiqarish yoki iste'mol jarayonida unga sarflanadigan jonli va buyumlashgan mehnat miqdorining kamayishi bilan ifodalanadi. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymati yoki naflilik darajasi o'zgarmaydi. Nisbiy tejamkorlik esa jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari nisbatan o'zgarmagan sharoitda ishlab chiqarishning foydali natijalari — ya'ni qiymat hajmining ortishi bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Shu sababli resurslar tejamkorligini ta'minlash iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Tejamkorlik darajasi odatda nisbiy ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Agar jamiyat bitta individdan iborat bo'lganida, uning harakatlarini tejamkorlik mezoniga ko'ra baholashning iloji bo'lmas edi. Demak, tejamkorlik jamiyatning ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichida mavjud resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi hamda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlik esa “xarajatlar – ishlab chiqarish” o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Boshqacha aytganda, u ishlab chiqarish jarayonida sarflangan cheklangan resurslar yig'indisi va olingan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Sarflangan xarajatlar miqdoriga nisbatan mahsulotning ortishi esa iqtisodiy samaradorlik oshganidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, xarajatlarni oldindan rejalashtirish xarajatlarni boshqarish tizimining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u korxonaning resurslari qaysi yo'nalishda, qachon va qanday miqdorda sarflanishini aniqlash imkonini yaratadi. Shuningdek, korxonaning o'ziga xos jihatlari va kompleks yondashuvni inobatga olgan holda xarajatlarni boshqarish tizimidan foydalanish korxona faoliyatida yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishga zamin bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1 Сей Ж.Б. Трактат политической экономии / Ж.Б. Сей. - Москва; Изд.-во «К.Т. Солдатенков». 1896. - 400 с
- 2 Shodmonov Sh. Ishlab chiqarish harajatlari [elektron manba]. URL:  
<https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/ishlab-chiqarish-xarajatlari-uz/>
- 3 Toshnazarova D.S. Harajatlar va tannarx tushunchasi, ularning mazmuni va tavsifi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali № 3, may-iyun, 2021 y. 31- 41 betlar URL:  
[https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/4\\_Toshnazarova.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/4_Toshnazarova.pdf)
- 4 Maxmudov A.N. Sanoat korxonalarida harajatlarini maxsulot tannarxiga taqsimlash metodologiyasini takomillashtirish istiqbollari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2022 y. 23-30 betlar. URL:  
[https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/4\\_Makhmudov.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/4_Makhmudov.pdf)
- 5 Маркс К. Энгельс Ф. Избранные произведения: в 3 Т. 2. М.: Политиздат, 1985. - 543 с